

## O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTINI INKLYUZIV RIVOJLANTIRISHNING ASOSIY KO‘RSATKICHLARI TAHLILI

**Murodullayev Saydali Fayzulla o‘g‘li**  
*Osiyo Texnologiyalar universiteti magistranti*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada O‘zbekiston iqtisodiyotining 2020–2024 yillar davomidagi inklyuziv rivojlanish ko‘rsatkichlari miqdoriy va sifatiy tahlil qilingan. Yalpi ichki mahsulot (YaIM) o‘shish sur‘atlari, qashshoqlik darajasi, Gini koeffitsienti, ishsizlik, mintaqaviy daromad farqlari va inson rivojlanishi indeksi (HDI) ko‘rsatkichlari kompleks tarzda o‘rganilgan. Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekiston iqtisodiyoti COVID-19 pandemiyasiga qaramay barqaror o‘shish yo‘lida bo‘lib, qashshoqlik kamaygani va bandlik yaxshilangani bilan birga, iqtisodiy o‘shish foydalari jamiyat bo‘ylab bir xil taqsimlanmayapti — mintaqaviy va daromad tengsizligi kuchayib borayotgani inklyuziv rivojlanishning ustuvor muammo ekanligini ko‘rsatadi. Maqola siyosat ishlab chiquvchilarga inklyuzivlikni ta‘minlash bo‘yicha amaliy tavsiyalar berib, ilmiy hamjamiyat uchun ham yangi mulohazalar taqdim etadi.

**Kalit so‘zlar:** inklyuziv rivojlanish, YaIM o‘shishi, qashshoqlik, Gini koeffitsienti, mintaqaviy tengsizlik, bandlik, O‘zbekiston, inson rivojlanishi indeksi.

## АНАЛИЗ ОСНОВНЫХ ПОКАЗАТЕЛЕЙ ИНКЛЮЗИВНОГО РАЗВИТИЯ ЭКОНОМИКИ УЗБЕКИСТАНА

**Муродуллаев Сайдали Файзулла угли**  
*магистрант Университета азиатских технологий*

**Аннотация.** В данной статье проведён количественный и качественный анализ показателей инклюзивного развития экономики Узбекистана за 2020–2024 годы. Комплексно изучены темпы роста валового внутреннего продукта (ВВП), уровень бедности, коэффициент Джини, безработица, региональные различия в доходах и индекс человеческого развития (ИЧР). Результаты анализа показывают, что, несмотря на пандемию COVID-19, экономика Узбекистана сохранила устойчивый рост: при снижении бедности и улучшении занятости выгоды экономического роста распределяются по обществу неравномерно — усиление регионального и доходного неравенства остаётся приоритетной проблемой инклюзивного развития. В статье представлены практические рекомендации для разработчиков политики по обеспечению инклюзивности, а также новые соображения для научного сообщества.

**Ключевые слова:** инклюзивное развитие, рост ВВП, бедность, коэффициент Джини, региональное неравенство, занятость, Узбекистан, индекс человеческого развития.

## ANALYSIS OF THE KEY INDICATORS OF INCLUSIVE DEVELOPMENT OF UZBEKISTAN'S ECONOMY

Murodullayev Saydali Fayzulla ugli

*Master's student, Asian Technologies University*

**Abstract:** *This paper analyzes key inclusive development indicators of Uzbekistan's economy for 2020–2024 through quantitative and qualitative methods. GDP growth, poverty rates, the Gini coefficient, unemployment, regional income disparities and HDI are examined comprehensively. Results show that while growth, poverty reduction and employment improved, economic gains are not distributed equally — regional and income inequality deepening remains the key challenge for inclusive development.*

**Keywords:** *inclusive development, GDP growth, poverty, Gini coefficient, regional inequality, employment, Uzbekistan, Human Development Index.*

**Kirish.** Inklyuziv iqtisodiy rivojlanish zamonaviy iqtisodiyot fanida muhim tadqiqot yo'nalishi sifatida qaralmoqda. Uning mohiyati shundan iboratki, iqtisodiy o'sish nafaqat yalpi ko'rsatkichlar yig'indisi emas, balki jamiyatning barcha qatlamlari, mintaqalari va ijtimoiy guruhlarining farovonligi o'sishiga hissa qo'shishi lozim [1]. Osiyo taraqqiyot banki (OTB) inklyuziv o'sishni «iqtisodiy imkoniyatlarni kengaytirib, barcha uchun adolatli taqsimotni ta'minlaydigan o'sish» sifatida ta'riflagan [2].

O'zbekiston 2017 yildan boshlab iqtisodiy liberallashtirish, davlat korxonalarini xususiyashtirishni jadallashtirishga qaratilgan keng qamrovli islohotlarni amalga oshirib, 2017–2024 yillar davomida yiliga o'rtacha 5–7% YaIM o'sishiga erishdi [3]. Pandemiya yilida ham yalpi ichki mahsulot ijobiy o'sishini saqlab qolgan O'zbekiston MDH davlatlari orasida barqaror iqtisodiy ko'rsatkichlarni namoyish etdi. Biroq tez o'sayotgan iqtisodiyot barcha uchun teng imkoniyatlarni ta'minlayaptimi, degan savol ochiq qolmoqda.

Jahon banki 2024 yilgi hisobotida O'zbekistonda 2022–2023 yillarda eng yuqori daromadli 10 foizning daromadi 30 foizdan ko'proq o'sgan bo'lsa, eng quyi 10 foizniki atigi 6 foiz o'sganligi qayd etilgan [4]. Bu ko'rsatkich iqtisodiy o'sish mevalari barcha qatlamlarga bir xil yetib bormaganligidan dalolatdir. Shuningdek, Toshkent shahri va Surxondaryo viloyati o'rtasidagi o'rtacha ish haqi farqi 2020 yildagi 1,74 martadan 2024 yilda 2,3 martaga ko'tarilganligi mintaqaviy tengsizlikning chuqurlashayotganini ko'rsatadi [4].

Ushbu maqolaning maqsadi O'zbekiston iqtisodiyotining 2020–2024 yillar oralig'idagi inklyuziv rivojlanish holatini miqdoriy ko'rsatkichlar asosida baholash, muammolarni aniqlash va siyosat tavsiyalari ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqot quyidagi savollarga javob berishga intiladi: (1) O'zbekistonda YaIM o'sishi inklyuziv xarakter kasb etdimi? (2) Qashshoqlik va tengsizlik ko'rsatkichlari qanday o'zgardi? (3) Mintaqaviy farqlar qanchalik chuqurlashdi? (4) Inklyuzivlikni kuchaytirish uchun qanday chora-tadbirlar zarur?

Maqolaning ilmiy yangiligi shundaki, u 5 yillik (2020–2024) dinamikada O‘zbekiston iqtisodiyotini inklyuzivlik prizmasi orqali kompleks baholash orqali mavjud bo‘shliqni to‘ldiradi va amaliy siyosat tavsiyalari bilan yakunlanadi.

**Adabiyotlar tahlili.** Inklyuziv o‘shish nazariyasining ildizlari klassik iqtisodiyot faniga borib taqalsa-da, zamonaviy konsepsiya asosan 2000-yillar oxirida shakllandi. Rajan va Zingales [5] o‘zlarining mashhur «Kapitalni kapitalistlardan himoya qilish» asarida moliyaviy qamrov va bozor raqobati inklyuziv o‘shishning asosiy kanallari ekanligini asoslab berdi. Ularning ta’kidlashicha, kuchli aloqalar tarmog‘iga ega bo‘lgan elitalar bozorga kirishni cheklash orqali inklyuzivlikka to‘sqinlik qiladi.

Xalqaro valyuta fondi (XVF) 2015 yilgi tadqiqotida [6] 159 mamlakat ma’lumotlari asosida yuqori daromad tengsizligi ( $Gini > 0,40$ ) o‘rtacha o‘shish sur’atlarini kamida 0,5 foiz punktga pasaytirishini isbotladi. Bu natija inklyuziv o‘shish siyosatining nafaqat ijtimoiy, balki makroiqtisodiy zaruriyatini asoslab beradi — tengsiz jamiyatda iste’mol talabi pastroq, ishlab chiqarish potentsiali esa to‘liq ro‘yobga chiqmaydi.

OTB [2] inklyuziv o‘shishni o‘lchash uchun ko‘p o‘lchovli indeks ishlab chiqqan bo‘lib, u uchta asosiy o‘lchovni qamrab oladi: (1) iqtisodiy imkoniyatlar va daromad; (2) iqtisodiy xavfsizlik va barqarorlik; (3) teng imkoniyatlar va integratsiya. Ushbu yondashuv yalpi YaIM o‘shish ko‘rsatkichlariga tayangan an’anaviy usullardan farqlanib, taqsimot va sifat jihatlari ham hisobga oladi.

MDH mamlakatlari kontekstida Guriev va Zhuravskaya [7] o‘tish davri iqtisodiyotlarida inklyuzivlikni ta’minlashning eng muhim to‘siqlaridan biri — narx islohotlari va xususiylashtirishning neytral bo‘lmagan daromad taqsimotiga ta’siri ekanligini ko‘rsatgan. Ularning tadqiqoti asosida, o‘tish davri mamlakatlari iqtisodiy o‘shishga erishganda ham, bu o‘shish aksariyat hollarda yuqori daromadli guruhlar manfaatiga xizmat qilishi ehtimoli katta.

O‘zbekiston iqtisodiyotining inklyuziv rivojlanishi bo‘yicha mahalliy olimlar ham bir qator muhim ishlarni amalga oshirishgan. G‘ulomov [8] O‘zbekiston iqtisodiyotini isloh qilish jarayonida ijtimoiy tengsizlik va iqtisodiy o‘shish o‘rtasidagi munosabatni o‘rganib, islohotlarning ijtimoiy oqibatlarini yumshatish uchun maqsadli ijtimoiy dasturlarni kengaytirish zarurligini ta’kidlagan. Mustafakulov [9] O‘zbekistonda davlat islohotlari va inklyuziv rivojlanish o‘rtasidagi bog‘liqlikni tadqiq etib, ijtimoiy himoya tizimini kuchaytirish inklyuzivlikni oshirishning ustuvor yo‘nalishi ekanligini asoslagan.

Jahon banki [10] «Farovon va inklyuziv kelajak sari» nomli O‘zbekiston bo‘yicha maxsus hisobotida iqtisodiyotni tarkibiy qayta qurish zaruriyatini, jumladan, qishloq xo‘jaligining YaIMdagi ulushini kamaytirish, xizmatlar sektorini rivojlantirish va ichki migratsiyani rag‘batlantirishni belgilab bergan. Hisobotda 2020 yilda qishloq xo‘jaligining YaIMdagi ulushi 26 foizga teng

bo‘lib, bu Yevropa va Markaziy Osiyo mintaqasidagi eng yuqori ko‘rsatkichlardan biri ekanligi qayd etilgan.

Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, inklyuziv rivojlanishni baholashda ko‘p o‘lchovli yondashuv zarur: YaIM o‘shishi yolg‘iz yetarli ko‘rsatkich emas, balki Gini koeffitsienti, qashshoqlik kamayishi dinamikasi, mintaqaviy farqlar va bandlik sifati ham hisobga olinishi lozim [11]. Ushbu maqola aynan shunday kompleks tahlilni O‘zbekiston iqtisodiyotiga nisbatan amalga oshiradi.

### **Tadqiqot metodologiyasi**

Tadqiqotda quyidagi metodlar va ma’lumot manbalari qo‘llanilgan:

**1. Ma’lumot manbalari.** Tahlil uchun quyidagi birlamchi va ikkilamchi manbalardagi statistik ma’lumotlar to‘plangan: Jahon banki ochiq ma’lumotlar bazasi (2020–2024); Osiyo taraqqiyot banki (OTB) statistik to‘plami; O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasining rasmiy axborotnomasi; UNDP Inson rivojlanishi hisoboti (2022–2024); Macrotrends.net xalqaro ma’lumotlar bazasi.

**2. Tahlil usullari.** Quyidagi miqdoriy va sifatiy usullar qo‘llanildi: (a) Dinamik trend tahlili — ko‘rsatkichlarning 5 yillik o‘zgarish tendentsiyasini aniqlash; (b) Solishtirishli tahlil — O‘zbekiston ko‘rsatkichlarini MDH va rivojlanayotgan mamlakatlar o‘rtacha ko‘rsatkichlari bilan taqqoslash; (c) Korrelyatsion tahlil — YaIM o‘shishi va tengsizlik ko‘rsatkichlari o‘rtasidagi bog‘liqlikni o‘lchash; (d) OTB inklyuziv o‘shish indeksi metodikasi [2] asosida kompleks baholash.

**3. Ko‘rsatkichlar tizimi.** Inklyuziv rivojlanishni baholash uchun quyidagi asosiy ko‘rsatkichlar tanlangan: (1) YaIM o‘shish sur‘ati (%); (2) jon boshiga YaIM (AQSh dollari); (3) qashshoqlik darajasi (\$4,20/kun, 2021 PPP); (4) Gini koeffitsienti; (5) ishsizlik darajasi; (6) mintaqaviy ish haqi farqi; (7) aholi soni va o‘shish sur‘ati. Ushbu ko‘rsatkichlar majmui inklyuziv rivojlanishning iqtisodiy o‘shish, taqsimot va ijtimoiy integratsiya o‘lchovlarini qamrab oladi.

### **Natijalar**

#### **1. YaIM o‘shishi va makroiqtisodiy barqarorlik**

O‘zbekiston 2020 yilda COVID-19 pandemiyasining salbiy ta’siriga qaramay, MDH mamlakatlarining aksariyatidan farqli o‘laroq, YaIM o‘shishini ijobiy darajada saqlab qoldi. 2020 yilda YaIM o‘shishi 2,0 foizni tashkil etib, xalqaro me’yorlar va mintaq ko‘rsatkichlariga nisbatan yuqori bo‘ldi [3]. 2021 yilda pandemiyadan keyingi tiklanish jarayonida YaIM o‘shishi 7,4 foizga yuksaldi. 2022–2024 yillarda o‘shish sur‘ati 5,7–6,7 foiz oralig‘ida barqarorlashdi [3], [12].

#### **1-jadval**

#### **O‘zbekiston asosiy makroiqtisodiy va inklyuziv rivojlanish ko‘rsatkichlari (2020–2024)**

| Ko‘rsatkich | 2020 | 2021 | 2022 | 2023 | 2024 |
|-------------|------|------|------|------|------|
|-------------|------|------|------|------|------|

|                              |       |       |       |       |       |
|------------------------------|-------|-------|-------|-------|-------|
| YaIM o'sishi (%)             | 2,0   | 7,4   | 5,7   | 6,0   | 6,7   |
| Jon boshiga YaIM (AQSh\$)    | 1 978 | 2 259 | 2 579 | 2 879 | 3 162 |
| Qashshoqlik darajasi* (%)    | —     | 9,1   | 8,3   | 7,3   | 5,1   |
| Gini koeffitsienti           | —     | ~31,0 | ~31,2 | ~35,0 | 34,6  |
| Ishsizlik darajasi (%)       | 10,5  | 9,6   | 8,9   | 6,8   | 5,5   |
| Aholi<br>(million kishi)     | 34,9  | 35,6  | 36,4  | 37,2  | 37,9  |
| Aholining yillik o'sishi (%) | 1,9   | 2,0   | 2,1   | 2,1   | 2,1   |

\* Jahon banki \$4,20/kun (2021 PPP) mezoni asosida. Manba: World Bank [3], [12]; Milliy statistika qo'mitasi [13].

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, jon boshiga YaIM 2020 yildagi 1 978 AQSh dollaridan 2024 yilda 3 162 AQSh dollariga o'sgan — bu 60 foizlik nominal o'sish demakdir. Biroq bu ko'rsatkich O'zbekistonning hali ham o'rta-quyi daromadli mamlakatlar qatorida ekanligini bildiradi va Jahon bankining 2030 yilga qadar o'rta daromadli mamlakat maqomiga ko'tarilish maqsadiga erishish uchun sezilarli sa'y-harakat talab etiladi [4].

## 2. Qashshoqlik dinamikasi va inklyuzivlik

Qashshoqlik darajasining kamayishi inklyuziv rivojlanishning eng muhim ko'rsatkichlaridan biri hisoblanadi. Jahon bankining \$4,20/kun (2021 PPP) mezoni bo'yicha O'zbekistonda qashshoqlik darajasi 2021 yildagi 9,1 foizdan 2024 yilda 5,1 foizga tushdi [12]. Bu Jahon bankining O'zbekiston hukumati bilan birgalikda belgilagan 2026 yilga qadar qashshoqlikni yarmiga kamaytirish maqsadiga erishilayotganini ko'rsatadi [4].

Milliy qashshoqlik chizig'i bo'yicha ko'rsatkich ham sezilarli yaxshilandi: ADB va Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra milliy qashshoqlik darajasi 2021 yilgi 17,0 foizdan 2022 yilda 14,1 foizga, 2023 yilda 11,0 foizga va 2024 yilga kelib 8,9 foizga tushdi [13], [14]. Biroq bu ijobiy tendensiyaning barqarorligi iqtisodiy o'sishning davom etishi va ijtimoiy dasturlarning samarali amalga oshirilishiga bog'liqdir.

Qashshoqlik kamaygani bilan birga, uning kamayish tezligi tengsizlik tufayli kutilganidan past bo'ldi. Jahon banki hisobiga ko'ra, Gini koeffitsientining 2022 yildagi 0,31 dan 2023 yilda 0,35 ga ko'tarilishi qashshoqlik kamayish sur'atini sekinlashtirdi — tengsizlik kuchaymaganida qashshoqlik 5,5 foiz punktga kamayishi mumkin edi, ammo haqiqatda u faqat 3,1 foiz punktga kamaydi [4].

## 3. Gini koeffitsienti va daromad tengsizligi

Daromad tengsizligini o'lchashning eng keng tarqalgan ko'rsatkichi bo'lmish Gini indeksining o'zgarishi inklyuziv rivojlanish tahlilida markaziy o'rin tutadi. O'zbekistonda bu ko'rsatkich:

2-jadval

### O'zbekistonda Gini koeffitsienti dinamikasi va xalqaro taqqos (2020–2024)

| Mamlakat / Ko'rsatkich | 2020 | 2021 | 2022 | 2023 | 2024 |
|------------------------|------|------|------|------|------|
|------------------------|------|------|------|------|------|

|                             |      |      |      |      |      |
|-----------------------------|------|------|------|------|------|
| <b>O‘zbekiston</b>          | —    | 31,0 | 31,2 | 35,0 | 34,6 |
| <b>Qozog‘iston (taqqos)</b> | 27,8 | 27,5 | 27,3 | 27,0 | 26,8 |
| <b>MDH o‘rtacha</b>         | 34,0 | 33,8 | 33,5 | 34,0 | 33,9 |
| <b>Jahon o‘rtacha</b>       | 40,8 | 40,7 | 40,6 | 40,7 | 40,9 |

Manba: World Bank [12], TheGlobalEconomy [15]. Qozog‘iston va MDH raqamlari taxmini.

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, O‘zbekistonning Gini koeffitsienti Jahon o‘rtachasiga (40,9) nisbatan ancha past — bu nisbatan past tengsizlikni anglatadi. Biroq 2022–2023 yillardagi keskin ko‘tarilish (31,2 dan 35,0 ga) muammo yuzaga kelayotganidan dalolat beradi. Jahon banki mutaxassislarining ta’kidlashicha, eng boy 10 foizning daromadi 2022–2023 yillarda 30 foizdan ko‘proq o‘sgan bo‘lsa, eng kambag‘al 10 foizniki atigi 6 foiz o‘sgan — bu iqtisodiy o‘rish foydalari yuqoriga siljib ketayotganining aniq belgisidir [4].

#### 4. Mintaqaviy tengsizlik: eng keskin muammo

Mintaqaviy tengsizlik O‘zbekiston inklyuziv rivojlanishining eng og‘riqli nuqtasi hisoblanadi. Iqtisodiy faollik, daromad va bandlik imkoniyatlari jihatidan poytaxt va rivojlangan viloyatlar bilan chekka hududlar o‘rtasida katta farq mavjud.

### 3-jadval

#### Mintaqaviy ish haqi farqi: Toshkent shahri va Surxondaryo viloyati nisbati (2020–2024)

| Ko‘rsatkich                                                   | 2020 | 2021  | 2022  | 2023  | 2024  |
|---------------------------------------------------------------|------|-------|-------|-------|-------|
| <b>Toshkent/Surxondaryo o‘rtacha ish haqi nisbati (marta)</b> | 1,74 | 1,85  | ~2,0  | 2,10  | 2,30  |
| <b>Yillik o‘shish (foiz punkt)</b>                            | —    | +0,11 | +0,15 | +0,10 | +0,20 |

Manba: World Bank [4].

Yuqoridagi jadval ko‘rsatayotganidek, mintaqaviy ish haqi farqi 2020 yildan 2024 yilga qadar 1,74 martadan 2,30 martaga ko‘tarildi — bu 4 yil ichida 32 foizlik kengayishni anglatadi. Bu tendensiya, agar maxsus siyosat chora-tadbirlari ko‘rilmasa, davom etishi va inklyuziv rivojlanishning geografik o‘lchovini yanada yomonlashtirishi kutilmoqda.

Mintaqaviy tengsizlikning asosiy sabablaridan biri — ishlab chiqarish kuchlarining joylashish notekisligi. Sanoat korxonalari, xizmatlar sektori va raqamli iqtisodiyot asosan Toshkent, Samarqand, Buxoro va Farg‘ona vodiysiga to‘plangan bo‘lsa, janubiy va shimoliy hududlarda qishloq xo‘jaligi dominant bo‘lib, ish haqi darajasi pastroq qolmoqda [10].

#### 5. Inson rivojlanishi indeksi (HDI)

Inson rivojlanishi indeksi (HDI) inklyuzivlikning ijtimoiy o‘lchovini — uzoq va sog‘lom umr, ta’lim hamda munosib turmush darajasini — yaxlit aks ettiradi. BMT Taraqqiyot dasturi (UNDP) ma’lumotlariga ko‘ra O‘zbekistonning HDI ko‘rsatkichi 2021 yildagi 0,728 dan 2022 yilda 0,727 va

2023 yilda 0,740 ga ko‘tarildi; shu bilan mamlakat 193 davlat orasida 107-o‘rinni egallab, «yuqori inson rivojlanishi» toifasida mustahkamlandi [11]. HDI ning izchil o‘shishi qashshoqlikning kamayishi va bandlikning yaxshilanishi bilan uyg‘undir. Biroq uning tarkibiy qismlari — ayniqsa ta’lim sifati (PISA-2022 natijalari xalqaro o‘rtachadan past bo‘ldi) va mintaqalararo farqlar — inklyuzivlikning hududiy va sifat o‘lchovlarida hali zaxiralar mavjudligini ko‘rsatadi.

## 6. Inklyuziv rivojlanish ko‘rsatkichlari tahlil xulosasi

4-jadval

### Inklyuziv rivojlanish ko‘rsatkichlari umumiy baholash (2020–2024)

| Ko‘rsatkich                | 2020 holati      | 2024 holati  | Tendensiya |
|----------------------------|------------------|--------------|------------|
| YaIM o‘shishi              | 2,0% (pandemiya) | 6,7%         | ↑ Ijobiy   |
| Qashshoqlik                | —                | 5,1%         | ↓ Ijobiy   |
| Daromad tengsizligi (Gini) | —                | 34,6         | ↑ Muammo   |
| Ishsizlik                  | 10,5%            | 5,5%         | ↓ Ijobiy   |
| Mintaqaviy ish haqi farqi  | 1,74 marta       | 2,30 marta   | ↑ Muammo   |
| Inson rivojlanishi (HDI)   | 0,728 (2021)     | 0,740 (2023) | ↑ Ijobiy   |

Manba: muallif tomonidan tuzilgan.

## Muhokama

Olingan natijalar O‘zbekiston iqtisodiyotida o‘shish va inklyuzivlik o‘rtasida ma’lum qarama-qarshilik mavjudligini ko‘rsatadi. Bir tomondan, YaIM barqaror o‘shib, qashshoqlik kamayib, ishsizlik pasaydi — bular ijobiy inklyuziv rivojlanish belgilari. Biroq boshqa tomondan, daromad tengsizligi va mintaqaviy farqlar kengaymoqda.

Bu hodisani tushuntirish uchun «inklyuziv o‘shishning qaychi effekti» kontseptsiyasiga murojaat etish mumkin: tez o‘sayotgan iqtisodiyotlarda dastlab tengsizlik oshadi (Kuznets egri chizig‘i [16]), so‘ng ma’lum daromad darajasiga yetganda tengsizlik pasayadi. Biroq O‘zbekiston uchun bu jarayon tabiiy yo‘l bilan ketishiga ishonib bo‘lmaydi — maqsadli siyosat zarur [5], [6].

Jahon banki [4] O‘zbekistondagi tengsizlik kuchayishining asosiy sabablaridan biri sifatida ish haqi o‘shishining tarmoqlar va mintaqalar bo‘ylab notekis taqsimlanishini ko‘rsatadi. Raqamli va moliya sektori, tog‘-kon sanoati va eksport yo‘nalishidagi tarmoqlarda ish haqlari tez o‘sgan, qishloq xo‘jaligi va past samaradorli xizmatlar sektorida esa past qolmoqda. Bu «ikki tezlikli iqtisodiyot» hodisasini keltirib chiqarmoqda.

Jahon bankining yangilangan xalqaro o‘ta qashshoqlik chizig‘i (\$3,00/kun, 2021 PPP) bo‘yicha O‘zbekistonda o‘ta qashshoqlikda yashovchilar ulushi juda past — so‘nggi baholarga ko‘ra 2,3 foiz atrofida — bo‘lib, mutlaq qashshoqlik amalda yo‘q qilingan [12]. Ammo nisbiy qashshoqlik va tengsizlik muammosi dolzarb bo‘lib qolmoqda.

### **Inklyuziv rivojlanishni kuchaytirish bo'yicha tavsiyalar**

Tadqiqot natijalari va adabiyotlar tahlili asosida quyidagi siyosat tavsiyalari ishlab chiqildi:

**a) Mintaqaviy investitsiya siyosatini takomillashtirish.** Surxondaryo, Qashqadaryo, Jizzax kabi ortda qolayotgan mintaqalarga imtiyozli investitsiya muhiti yaratish, maxsus iqtisodiy zonalar va texnologik parklar tashkil etish orqali ish o'rinlari va daromad darajasini oshirish [10].

**b) Progressiv daromad soliq tizimini joriy etish.** Yuqori daromadlilarga nisbatan progressiv soliq yukini oshirish va olingan mablag'larni maqsadli ijtimoiy dasturlarga yo'naltirish orqali tengsizlikni kamaytirish [6].

**c) Qishloq xo'jaligida mehnat unumdorligini oshirish.** YaIMdagi ulushi 26 foizga yetgan qishloq xo'jaligida mexanizatsiya, suv tejovchi texnologiyalar va kooperatsiya tizimini rivojlantirish asosida daromad darajasini oshirish [10].

**d) Ta'lim sifatini oshirish va STEM yo'nalishini kengaytirish.** ADB [14] ta'kidlaganidek, O'zbekiston ta'lim tizimi sifatini xalqaro standartlarga yaqinlashtirish, xususan PISA dasturidagi natijalarni yaxshilash va umumiy o'rta ta'limga xarajatlarni oshirish zarur.

**e) Mehnat migratsiyasini ichki bozorga yo'naltirish.** Milliy statistikaga ko'ra ichki migratsiya juda past — bu shahar/qishloq resurslarining noto'g'ri taqsimlanishiga olib kelmoqda. Ichki migratsiyani rag'batlantiradigan dasturlar inklyuzivlikni oshiradi [10].

### **Xulosa**

Ushbu tadqiqot O'zbekiston iqtisodiyotining 2020–2024 yillar davomidagi inklyuziv rivojlanish holatini kompleks baholadi. Asosiy topilmalar quyidagilardan iborat:

Birinchidan, O'zbekiston YaIM o'sishini pandemiya yilida ham saqlab qoldi va 2021–2024 yillarda yiliga o'rtacha 6,5 foiz o'sishni ta'minladi. Bu MDH mamlakatlarining aksariyatidan yuqori ko'rsatkichdir. Ikkinchidan, qashshoqlik darajasi (\$4,20/kun mezonida) 9,1 foizdan 5,1 foizga tushib, Jahon banki va hukumatning 2026 yilga qadar qashshoqlikni yarmiga kamaytirish maqsadiga erishilayotgani ko'rindi. Ishsizlik esa 10,5 foizdan 5,5 foizga pasaydi.

Uchinchidan va eng muhimi — Gini koeffitsientining 2023 yilda keskin ko'tarilishi (0,31 dan 0,35 ga) va mintaqaviy ish haqi farqining 2,3 martaga yetishi inklyuzivlikning zaif tomonlarini ochib berdi. Iqtisodiy o'sish mevalari hamma uchun teng taqsimlanmayapti — yuqori daromadlilar va rivojlangan mintaqalar ancha ko'proq foyda ko'rmoqda.

Xulosa shuki, O'zbekiston iqtisodiyoti o'sish dinamikasiga ega, ammo ushbu o'sishni inklyuziv xarakter kasb ettirishda hali qiladigan ishlari ko'p. Mintaqaviy tengsizlikni kamaytirish, progressiv soliq siyosati va ta'lim sifatini oshirish — eng ustuvor yo'nalishlardir. Jahon bankining O'zbekiston bo'yicha Mamlakat hamkorlik dasturi (CPF, 2022–2026) va Osiyo taraqqiyot bankining

mamlakat hamkorlik strategiyasi (CPS, 2024–2028) aynan ushbu muammolarni hal etishga yo‘naltirilgani [17], [18] O‘zbekiston inklyuziv rivojlanish yo‘lidagi xalqaro hamkorlikni kuchaytirayotganidan dalolat beradi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati**

1. Anand, R., Mishra, S., & Peiris, S. J. (2013). Inclusive growth revisited: Measurement and determinants. IMF Working Paper WP/13/112. Washington, DC: IMF.
2. Asian Development Bank. (2011). Framework of Inclusive Growth Indicators. ADB Special Report. Manila: Asian Development Bank.
3. World Bank. (2024). Uzbekistan Macroeconomic Data 2020–2024. Washington, DC: World Bank Open Data. <https://data.worldbank.org/country/uzbekistan>
4. World Bank. (2024). Charting Uzbekistan’s path to poverty reduction: Insights from international comparisons. World Bank Blog, May 2024. Washington, DC.
5. Rajan, R., & Zingales, L. (2003). Saving Capitalism from the Capitalists: Unleashing the Power of Financial Markets to Create Wealth and Spread Opportunity. New York: Crown Business.
6. IMF. (2015). Causes and Consequences of Income Inequality: A Global Perspective. IMF Staff Discussion Note SDN/15/13. Washington, DC: IMF.
7. Guriev, S., & Zhuravskaya, E. (2010). Why Russia is not South Korea. Journal of International Affairs, 63(2), 125–139.
8. G‘ulomov, S. S. (2021). O‘zbekiston iqtisodiyotini isloh qilish va ijtimoiy tengsizlik: makroiqtisodiy tahlil. Toshkent: TDIU nashriyoti.
9. Mustafakulov, Sh. I. (2023). Davlat islohotlari va inklyuziv rivojlanish: O‘zbekiston tajribasi. Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar jurnali, 4(1), 12–28.
10. World Bank. (2022). Farovon va inklyuziv kelajak sari: O‘zbekiston iqtisodiy hisoboti. Washington, DC: World Bank Publications. <https://documents1.worldbank.org>
11. UNDP. (2023). Human Development Report 2023/24: Breaking the Gridlock. New York: UNDP.
12. World Bank. (2024). Selected Indicators for Uzbekistan, Avg.’10–24, 2016–2025. Washington, DC: World Bank. <https://thedocs.worldbank.org>
13. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. (2024). O‘zbekiston Respublikasining asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari. Toshkent: Stat.uz. <https://stat.uz>
14. Asian Development Bank. (2024). Poverty Data: Uzbekistan. Manila: ADB. <https://www.adb.org/where-we-work/uzbekistan/poverty>
15. TheGlobalEconomy.com. (2024). Uzbekistan: Gini Income Inequality Index, 1998–2024. [https://www.theglobaleconomy.com/Uzbekistan/gini\\_inequality\\_index/](https://www.theglobaleconomy.com/Uzbekistan/gini_inequality_index/)
16. Kuznets, S. (1955). Economic growth and income inequality. The American Economic Review, 45(1), 1–28.
17. World Bank. (2022). Country Partnership Framework for Uzbekistan for the Period FY22–FY26. Washington, DC: World Bank Group.
18. Asian Development Bank. (2024). Country Partnership Strategy: Uzbekistan, 2024–2028. Manila: Asian Development Bank.